

**O‘ZBEKISTONDA FERMER XO‘JALIKLARI,
KLASTER TIZIMIDA OLIY MA‘LUMOTLI
KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMI
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**



E-mail:

begamova@mail.ru

Tel: +998 93 798 09 77

<https://orcid.org/0009-0002-5183-5799>

**Begamova Nasiba Xolmurzayevna,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
katta o‘qituvchisi**

**SYSTEM OF TRAINING HIGHER EDUCATIONAL
STAFF IN UZBEKISTAN ON THE FARM AND
CLUSTER SYSTEM**

(ON THE EXAMPLE OF SURKHONDARYA REGION)

**Begamova Nasiba Kholmurzaevna,
Doctor of Philosophy in History (PhD), Senior Lecturer at the
Termez Institute of Agrotechnology and Innovative
Development**

**СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ВЫСШЕ
ОБРАЗОВАННОГО КАДРА В УЗБЕКИСТАНЕ ПО
ФЕРМЕРСКОЙ И КЛАСТЕРНОЙ СИСТЕМЕ
(НА ПРИМЕРЕ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**Бегамова Насиба Холмурзаевна, доктор философских наук
по истории (PhD),**

**Старший преподаватель Термезского института
агротехнологий и инновационного развития**

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda oliy ma‘lumotli kadrlarning o‘rni borasida mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, Surxondaryo viloyatidagi fermer xo‘jaliklari va klaster tizimi taraqqiyotida malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish borasidagi islohotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: agrar islohotlar, oliy ma‘lumotli kadrlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonun, “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon.

Abstract: This article provides comments on the role of highly educated personnel in the development of agriculture. It also analyzes reforms aimed at meeting the need for qualified personnel in the development of farms and the cluster system of the Surkhandarya region.

Keywords: agrarian reforms, highly educated personnel, National Personnel Training Program, Law on Education, Decree “On Approval of the Strategy for the Development of Agriculture of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030”.

Аннотация: В данной статье содержатся комментарии о роли высокообразованных кадров в развитии сельского хозяйства. Также были проанализированы реформы, направленные на удовлетворение потребности в квалифицированных кадрах при развитии фермерских хозяйств и кластерной системы Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: аграрные реформы, высокообразованные кадры, Национальная программа подготовки кадров, Закон об образовании, Указ «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы».

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Mamlakatimizda agrar sohani yuksaltirishda yuqori malakali mutaxassislarining o'zni beqiyos hisoblanadi. Ko'pgina tarmoqlarda bo'lgani kabi qishloq xo'jaligining taraqqiy etishida asosan oliy ma'lumotli kadrlarning o'zni bilan bog'liqdir. Bu kabi jihatlarni hisobga olgan ilg'or davlatlar yuqori malakali agrar soha kadrlarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning bilim olishlari va amaliyot o'tashlari uchun yetarli bo'lgan barcha chora-tadbirlarni yaratadilar. Shuningdek, mutaxassislarini boshqa davlatlarga tajriba almashish uchun ham yuboradilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Mamlakatimiz bozor munosabatlariga o'tar ekan, qishloq xo'jaligini zamon talablariga moslashtirish, sohani yuqori malakali kadrlar va ilg'or texnika bilan ta'minlashni dolzarb vazifaga ko'tardi. Fermer xo'jaliklari va klaster tizimi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlash tizimidagi yutuqlar va muammolar masalasida Ahmedova M.A., Axunova Sh, Tursunov S.N., Qobilov E.O., Pardayev T.R., Murtazayev Z.M., Mamajonov S.H., Rahimov B.S., Temirova Ch.H., Xomitov K.Z., Botirova H.E., Xudoyberdiyev Z.R.lar bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Shuningdek Surxondaryo viloyati davlat arxivida ham mavzu yuzasidan ko'plab ma'lumotlar mavjud. Maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyoslash kabi metodlari va tarixiylik tamoyilidan foydalanilgan [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekistonda qishloq xo'jaligi kadrlarini tayyorlovchi bir qator o'quv yurtlari tashkil etilishiga ehtiyoj ortib bordi. Shu maqsadda Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, Samarqand qishloq xo'jalik instituti, Termiz davlat universiteti, Qarshi muhandislik iqtisodiyoti instituti va Qarshi davlat universiteti Surxondaryo viloyati uchun eng ko'p mutaxassis tayyorlab bergan oliy o'quv yurtlari hisoblanishadi. Toshkent davlat agrar universiteti O'zbekistonda qishloq xo'jalik kadrlarini tayyorlab beruvchi to'ng'ich oliy o'quv yurti bo'lib, oliygoh 1930-yil 26-may kuni O'rta Osiyo qishloq xo'jalik

instituti nomi bilan tashkil etilgan. 1934-yil oktyabrda Toshkent qishloq xo'jalik instituti deb nomi o'zgartirilgan. 1991-yil aprelda Toshkent davlat agrar universiteti maqomini oldi. 1992-yilda Toshkent davlat agrar universiteti O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qaramog'iga berilishi bilan byudjetdan tashqari moliyaviy ahvoli yaxshilanib, o'quv jarayoni, tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishga ko'proq mustaqillik berildi [3]. Tashkiliy, o'quv-tarbiyaviy va ilmiy-tadqiqot ishlar masalalarini hal etishda oliy o'quv yurt rahbariyatining huquqi yanada kengaydi. Toshkent davlat agrar universitetida 1991-92-o'quv yilida 1516 nafar talaba, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan holda 829 nafar va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda 687 nafar kishi birinchi kursga qabul bo'lsa, 1994-95- va 1995-96-o'quv yillarida universitetga talabalar qabul qilish 596 va 590 nafargacha, shu jumladan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda 415 va 473 nafargacha, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda 181 va 113 nafarni tashkil etdi. Bunda sirtqi bo'limda tahsil olishga ajratilayotgan o'rinlar qisqartirilganligini ko'rish mumkin [1].

2000-2001-o'quv yilida kunduzgi bo'limning birinchi kursida 1107, ikkinchi kursida 740, uchinchi kursida 599 va to'rtinchi kursida 591 nafar talaba bakalavriatda tahsil oldi. Universitetda ko'proq qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va audit (554 nafar), qishloq xo'jalik iqtisodiyoti (470 nafar), agronomiya (430 nafar), meva-sabzavotchilik va uzumchilik (229 nafar), o'simliklar himoyasi (237 nafar), zootexnika (240 nafar) yo'nalishlari bo'yicha talabalar o'qitildi. Qolgan yo'nalishlarda kunduzgi bo'limda o'qiydigan talabalar soni barcha kurslarda 200 nafarni tashkil etadi. Toshkent davlat agrar universiteti o'z faoliyati davomida 64 mingdan ortiqroq kadrlarni tayyorlab berdi. Shuning 24 mingga mustaqillik yillarida tayyorlangan. Termiz davlat universitetining Tabiiyot-geografiya fakulteti ham Surxondaryo viloyatini oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlashda o'z hissasini qo'shib keldi. Fakultet oltita kafedradan (Zoologiya, Botanika, Geografiya, Agrokimyo va agrotuproqshunoslik, Ekologiya va tabiatdan foydalanish, Tibbiy bilim asoslari) iborat bo'lib, 2009-yilda bu kafedralarda 51 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qildi [4].

NATIJJALAR (PEZYJLTATY / RESULTS).

Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqillikning dastlabki yigirma yilida O'zbekiston oliy o'quv yurtlari agrar soha uchun ko'plab oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashgan. Shunga qaramay, mamlakat qishloq xo'jaligi zamon talablari darajasiga ko'tarilmagan. Qishloq xo'jaligidagi turg'unlik holati saqlanib qolavergan. Buning sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

birinchidan, agrar sohada kadrlar tayyorlashning maqsadli tizimi shakllantirilmadi, mutaxassislar tayyorlash bo'yicha monitoring o'tkazilmasligi oqibatida oliy ma'lumotli kadrlar yetishmovchiligi yuzaga keldi;

ikkinchidan, qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari o'quv-laboratoriya bazasi to'liq eskirganligi, ta'limning ishlab chiqarish bilan uyg'unlashmaganligi natijasida kadrlar tayyorlash sifati tushishi hamda bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligining pasayishiga sabab bo'ldi;

uchinchidan, oliy o'quv yurtlaridagi professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini doimiy rivojlantirib borish, bu sohada yuksak taraqqiy etgan davlatlarning tajribalaridan foydalanish yetarli darajada bo'lmadi;

to'rtinchidan, o'quv jarayonida ilg'or axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, ilg'or o'qitish usullaridan foydalanish, mutaxassislik fanlari bo'yicha zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish darajasi past bo'ldi;

beshinchidan, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining oylik ish haqi juda pastligicha qolaverdi. Oqibatda, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish yoki semestrlardan o'tish uchun tanish-bilishchilik, poraxo'rlik, ta'magirlik singari illatlar kuchayib ketdi. Bu ham yetmagandek, hujjatbozlik va qog'ozbozlik, ta'limga aloqasi bo'lmagan turli tadbirlar kuchaydi. Talabalar dala va obodonchilik ishlariga haddan ortiq ko'p jalb etildilar. Bularning barchasi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi [5].

Aslida oliy agrar ta'lim tizimining vazifasi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, yangi g'oyalar va texnologiyalarni yaratish, joriy etish va tarqatish orqali qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi inqirozli vaziyat Respublika

rahbariyatini zarur bo'lgan chora-tadbir ko'rishga majbur etdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-sentyabrdagi "Respublika qishloq va suv xo'jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 415-sonli Qaroriga muvofiq 2004-2005-o'quv yilida qishloq xo'jaligi sohasi oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilishni rejalashtirishda Maxsus komissiyaning qishloq va suv xo'jaligi sohasida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini takomillashtirish bo'yicha takliflari hisobga olingan-28 bakalavriat yo'nalishidan 10 yo'nalishga o'zgartirishlar kiritildi va 7 mutaxassislik bo'yicha talabalar qabul qilish to'xtatildi. Shu bilan birga 7 ta yangi istiqbolli mutaxassislik kiritildi. O'qitishning yangi - fermer xo'jaligini boshqarish yo'nalishi qabul qilindi. Umuman olganda, 1991-2015-yillar davomida Respublikamizning bir qator oliy o'quv yurtlari Surxondaryo viloyati uchun turli kasbdagi ko'plab yuqori malakali kadrlar yetkazib berdilar [6],

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar malakali kadrlarga bo'lgan talabni yuzaga keltirdi. Agrar sohani zamon talablari darajasiga ko'tarish maqsadida kasb-hunar kollejlari tashkil etilib, qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan kichik texnik mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Mustaqil fikrlovchi, yangi texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan kadrlarni tayyorlash, birinchi navbatda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga harakat qilindi, ta'lim turlari orasidagi uzviylik ta'minladi. Oliy o'quv yurtlari bilan fermer xo'jaliklari va klasterlar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatilib, muayyan natijalarga erishildi. Agrar sohadagi oliygohlar bilan kasb-hunar kollejlari professor-o'qituvchilari tomonidan ko'plab darsliklar va uslubiy qo'llanmalar yaratildi, ularning tadqiqotlari bevosita ishlab chiqarishda qo'llanildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Milliy arxivi, 1619-fond. Markaziy statistika boshqarmasi.
2. 313 fond, Surxondaryo viloyat ijroiya qo'mitasi.

3. 454-fond, Surxondaryo viloyat ijroiya qo‘mitasi.
4. 455-fond, Surxondaryo viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi.
5. Tursunov S.N., Qobilov E.O., Pardayev T.R., Murtazayev Z.M., Surxondaryo tarix ko‘zgasida. –T.: Sharq, 2001. –B. 384.
6. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixi.–Toshkent: Sharq, 2004.
7. Begamova, N. K. (2022, November). Works Implemented in the Field of Agriculture in Our Country (In the Case of Farms). In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 148-150).
8. Xolmurzayevna, B. N. (2023). MILLIY QADRIYATLARGA SODIQLIKNI MUSTAHKAMLASHDA TA’LIMDAGI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(10), 14-18.

